

## INNOVATSIYALARNI TIJORATLASHTIRISH OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Zaylobitdinova Husnida Xaliljon qizi,  
tadqiqotchi,  
Farg'ona davlat universiteti,  
[khusnidazaylobitdinova@gmail.com](mailto:khusnidazaylobitdinova@gmail.com)  
+998905847226

**Annotatsiya.** Innovatsiyalar - bu yangi g'oyalar, usullar yoki mahsulotlar yaratish jarayonidir. Ularning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, asosan, ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik taraqqiyotga katta ta'sir ko'rsatadi. Oliy ta'lim muassasalari esa ilmiy-texnikaviy yutuqlarni ishlab chiqish va yosh avlodni malakali mutaxassislar sifatida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, oliy ta'lim muassasalarida innovatsiyalarni joriy etish, nafaqat ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, balki ta'lim sifatini oshirish, talabalarga zamonaviy bilim va ko'nikmalarni berish uchun ham zarurdir.

Ushbu maqolada innovatsiyalarni tijoratlashtirish oliy ta'lim muassasalarining ish samaradorligini oshiruvchi omil sifatida tadqiq etilgan. Innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirishning mazmun-mohiyati, tarkibiy tuzilishi va ishlatilish yo'nalishlari yoritilgan. Maqolada “fundamental fan - amaliy fan - texnologiyalarni joriy etish” zanjirida asosiy bo'g'in sifatida ITI yo'qolib ketishi oqibatida tajriba-sanoat ishlab chiqarishining rivojlanish sur'atlari bo'yicha ancha ortda qolayotganligi bilan bog'liq muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rsatilgan. OTM intellektual faoliyati natijalarini tijoratlashtirish mexanizmi ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini tijoratlashtirish, ITTKI natijalarini transformatsiyalash, kichik innovatsion korxonalar, OTMning innovatsion infratuzilmasi, OTMning innovatsion faolligi.

### I. KIRISH

Oliy ta'lim muassasalari ish faoliyatining samaradorligini oshirishda innovatsiyalarni tijoratlashtirishning ahamiyati juda katta. Innovatsiyalarni tijoratlashtirish orqali universitetlar, institutlar va boshqa oliy ta'lim muassasalari ilmiy ishlanmalardan foyda olish, iqtisodiy jihatdan mustahkamlanish, va jamiyatga ko'proq foyda keltirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hozirgi vaqtda oliy ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyati iqtisodiyot va oliy ta'lim muassasalari (OTM)da ta'lim jarayonlarini, moddiy-texnik salohiyatini modernizatsiyalashning muhim sharti sifatida chiqmoqda va OTMlar ish samaradorligini oshirishning ustuvor omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy o'quv yurtlari o'z faoliyatini o'qitish va tadqiqotlar standart markazlari doirasidan tashqari chiqarib, evolyutsion kechadi. Jamiyatning madaniy taraqqiyoti va universal qadriyatlarining kafolati bo'lishda davom etgan holda OTMlar ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarini tijoratlashtirish, texnologiyalar transferini tashkil qilish va tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish orqali iqtisodiyot real sektori bilan o'zaro aloqalarni kuchaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoniga muvofiq, “46-maqsadi: Oliy ta'lim bilan qamrov

darajasini 50 foizga yetkazish va ta’lim sifatini oshirish” sifatida belgilab olindi. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda bir qator vazifalar belgilandi:

- kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida qabul parametrlarini bosqichma-bosqich oshirish;
- yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrov darajasini bosqichma-bosqich yetkazish”;
- To’lov-kontrakt asosida o’qishga qabul qilish parametrlarini oliy ta’lim muassasalari tomonidan mustaqil belgilash tartibini joriy etish;
- 2026 yilda qabul ko’rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish.
- davlat oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan ular tomonidan mehnatga haq to’lash, xodimlar soni, to’lov-kontrakt miqdori va ta’lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo’lga qo’yish.
- davlat oliy ta’lim muassasalarining tegishli huquq va vakolatlarini aniq belgilash.

OTMda innovatsion faoliyat natijalarini tijorlashtirish amaldagi respublika qonunchiligiga muvofiq, patentni rasmiylashtirish, yuridik va jismoniy shaxslarni innovatsion faoliyat natijalaridan foydalanishga mutloq huquqlarini joriy etish va kichik innovatsion korxonalarini tuzish yordamida buyurtmaga ITTKI shaklida amalga oshirilishi mumkin. Biroq rasmiy va ekspert ma’lumotlariga ko’ra, respublikada o’tkazilayotgan ITTKI natijalarining bor-yo’g’i 0,5% igina sanoat ishlab chiqarishida foydalanilmoqda, ayni vaqtda AQShda ushbu ko’rsatkich 70% ga yaqinlashgan. Bundan tashqari, milliy amaliyotimizda patentlar va litsenziya shartnomalarini begonalashtirish, shartnomalarning qisqarishi barqaror tendensiyasi kuzatildi. O’zbekiston texnologik taraqqiy etgan mamlakatlardan “fundamental fan - amaliy fan - texnologiyalarni joriy etish” zanjirida asosiy bo’g’in sifatida ITI yo’qolib ketishi oqibatida tajriba-sanoat ishlab chiqarishining rivojlanish sur’atlari bo’yicha ancha ortda qolmoqda.

Statistika ma’lumotlariga ko’ra, 2023 yilda innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilishni respublika korxonalari jami sonining bor-yo’g’i 1% ga yaqini amalga oshirmoqdalar. Bu esa G’arb mamlakatlari darajasidan ancha past (masalan, Germaniyada bu daraja 70%ni, Chexiyada 36% ni tashkil etadi). Intellektual faoliyat mahsulotlarini sotishning yuqori ko’rsatkichlari ushbu mamlakatlarda yaxshi rivojlangan, raqobatbardosh innovatsiyalar bozorining mavjudligidan dalolat beradi.

## II. METODOLOGIYA

Tadqiqotning uslubiy asosini dialektikaning asosiy qoidalari va tamoyillari tashkil etdi. Innovatsiyalarni tijorlashtirish davlat oliy ta’lim muassasalari ish samaradorligini oshirishda iqtisodiy ko’rsatkichlar bo’yicha ma’lumotlarni to’plash, qayta ishlash va tahlil qilish uslubiga tayanildi. Ma’lumotlardan xulosa chiqarishda mantiqiy tahlil, sintez, umumlashtirish, induksiya va deduksiya, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondoshuv usullaridan foydalanildi.

### III. ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsiyalar zamonaviy inson hayotiga shunchalik mustahkam kirib bordiki, uning atrofini har tomondan: tovarlar (texnologiyalar) xossasi, ommaviy axborot vositalarida markaziy g'oya va davlat iqtisodiy siyosati obyekt sifatida ham qamrab oldi. Tsyurixdagi Shveytsariya texnika maktabida xizmat ko'rsatgan sotsiologiya fanlari professori X. Novotni bizning davrimizni innovatsiyalarga intilish va chalg'ish sifatida ta'riflaydi [13]. T. Veblenning ta'kidlashicha, o'zgarishlarni o'rganish iqtisodiyotning an'anaviy vazifasi hisoblanmaydi. Iqtisodiyot dinamikani o'rganishga nisbatan, ko'proq muvozanat bilan shug'ullanishi tarixan vujudga keldi [6].

R.M. Suizi ushbu hodisaning izdoshi K. Marks bo'lib, uning uchun ishlab chiqarish texnikasidagi o'zgarishlar zamonaviy sanoatning rivojlanishiga olib keldi [17], degan edi. Mashinalar ham inqiroz orqali, so'ngra inqilob orqali ijtimoiy o'zgarishlarning asosiy omiliga aylandi. A.K. Piguning yozishicha, texnologik ishsizlik texnologiyalarning iqtisodiy samarali yoki neytral hisoblanishiga nisbatan nazariy tasniflash turkumiga olib keldi [15]. O'sha davr ilmiy bahsi juda qisqa bo'lgan - "sanoat innovatsiyalari" paydo bo'lishi bilan bog'liq ravishda, 1960-yillardagi innovatsiyalarga bo'lgan qiziqish yangilangunga qadar juda qisqa bo'ldi.

Innovatsiyalarni zamonaviy tushunish asoslarini yo'lga qo'ygan Y.A. Shumpeter D. Rikardo asarlari negizida innovatsiyalarning besh turini aniqlab, haqiqatda esa ularni ishlab chiqarish usullari belgiladi:

- yangi ne'matlarni kiritish;
- yangi ishlab chiqarish usullarini joriy qilish;
- yangi bozorlarni ochish;
- xom ashyo yoki yarimfabrikatlarni yetkazib berish yangi manbalarini egallash;
- tashkil qilish yangi shakllarini joriy qilish.

U innovatsiya va kashfiyotlarni aniq ajratadi [20]. Biroq «innovatsiyalar» tushunchasini ilmiy jihatdan e'tirof etish uchun yanada ko'proq vaqt talab qilindi. Olim innovatsion sikllar nazariyasini ishlab chiqdi. Ushbu olimning raqobat konsepsiyasi ayrim muhim jihatlarda neoklassik konsepsiyadan farq qiladi: uni innovatsiyalarni ishlab chiqarish va taqsimlash asosi sifatida ta'rifladi.

*Birinchi*dan, raqobat narx va tovarlar miqdoriy tuzatishlari bilan cheklanmaydi. Neoklassik tahlilda yuz berayotgan narxlar va miqdorlar o'zgarishini umumiy muvozanat o'zgarishi, deb nomlash qabul qilingan, - bu Y.A. Shumpeterning tushuntirishicha, - texnologik, mahsulotli, tashkiliy innovatsiyalar va moliyaviy nazorat yangi shakllaridir. *Ikkinchi*dan, ular tomonidan taklif qilingan nazariyaga ko'ra, tadbirkor tomonidan yaratiladigan va joriy qilinadigan mahsulotli va jarayonli innovatsiyalar iqtisodiy tizimni uzun to'lqinlarga va biznes-tsikllarga olib kelish orqali muvozanatdan chiqaradi. *Uchinchi*dan, Y.A. Shumpeterning fikriga ko'ra, raqobat - bu qo'shimcha foydani izlashga rag'batlantirilgan korxonalar musobaqasi evolyutsion jarayonidir. U buni yangi jarayonlarni joriy qilish va yangi mahsulotlar ishlab chiqarishdan "monopol foyda"ga o'sib o'tuvchi ortiqcha foyda, deb ataydi.

Y.A. Shumpeterning uzun to'lqinlar nazariyasiga ko'ra, nafaqat ushbu radikal innovatsiyalar, balki ushbu uzun to'lqinlardan har biri ham turli mamlakatlarda yuzaga

kelgan, soʻngra esa butun dunyo boʻyicha tarqalgan turli texnologiyalar bilan bogʻliqdir. Ishlab chiqarish (tovarlar) va taqsimlashni ham birlashtiradigan nazariyalar F.Kenedan boshlab, A.Smit, D.Rikardo va K.Marks bilan yakunlanadigan iqtisodiy gʻoyalar uzoq tarixiga ega. 1940-yillardan boshlab, bunday nazariyalar texnologik innovatsiyalarga nisbatan qoʻllanildi. *Birinchidan*, Y.Shumpeterdan keyin tadbirkorlik oʻzgarishlari ilmiy izlanishlar mavzusi boʻlib, uning uchun, masalan, Garvard universitetidagi tadbirkorlik tarixi (1948-1958 yy.) sohasida A.X.Kol Tadqiqotchilik markazining tadqiqot dasturlari ishlab chiqildi [10]. *Ikkinchidan*, tashkiliy tuzilma va boshqaruv stili kabi tashkilotlarni rivojlantirish innovatsion modellari tadqiqotlari, asosan, T.Barns va G.M.Stalker asarlarida talqin qilingan [5].

*Uchinchidan*, Ikkinchi jahon urushidan keyin sanoatchilar va menejerlar uchun qiziq boʻlgan tadqiqotchilik faoliyati yuqori eʼtiborga ega boʻldi. Chunki u ish samaradorligini (foйда, bozordagi ulushi) oshirishga koʻmaklashadi. Shu jihatdan (texnologik) innovatsiyalar samaradorlik: narxlar va sifat nisbati yoki tadqiqotlar va ishlanmalar hajmi sifatida tushunila boshlandi [12].

Innovatsiyalarni ishlab chiqarish va tarqatish sohasidagi ilmiy gʻoyalarni yanada rivojlantirish jarayonida davlatning iqtisodiy siyosati muhim rol oʻynaydi. XX asr davomida innovatsiyalar konsepsiyasi toʻliq siyosatga yoʻnaltirilgan. Menejment va iqtisodiyot sohasidagi olimlar va tadqiqotchilar hamda biznes-maktablar vakillari hukumat maslahatchilari yoki ekspertlari sifatida chiqdilar hamda ularning nazariyalariga asoslangan “ijtimoiy muhandislik”, unumdorlik va iqtisodiy oʻsish uchun siyosiy tavsiyalar berishdan manfaatdor boʻldilar.

Innovatsiyalar konsepsiyasining siyosiy gʻoyasi ham quyidagicha namoyon boʻladi. 1960-yillardan boshlab, davlat iqtisodiy siyosati ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish bilan bogʻliq boʻldi, texnologik innovatsiyalar esa bunda kutilayotgan natijalar sifatida chiqdi. Soʻngra patentlar innovatsiyalarni (tijoratlashtirish) emas, balki kashfiyotlarni sanash imkoniyatini beradi, degan fikr ommalashdi. Bunda ITTKI bilan bogʻliq xarajatlar AQSh Milliy ilmiy fondi doirasidagi innovatsion koʻrsatkich sifatida foydalanila boshlandi.

Uchinchi bosqich “bilimlar iqtisodiyoti” shakllanishi bilan belgilandi. Bilimlarga asoslangan va iqtisodiyot bilimlariga tayanadigan jamiyat haqidagi munozara 1980-yillarda boshlandi - unga yuqori darajada industrlashgan jamiyatning eskiroq muhokamalari transformatsiyasi sifatida qarash mumkin [4].

“Bilimlar iqtisodiyoti” konsepsiyasi umumiy qoidalari tadqiqot natijalariga koʻra, quyidagilarga olib keladi [3;11;16;18]:

- bilimlarning muhimligi oshadi;
- sanoat islohotlari bugungi kunda qachonlardir boʻlganidan tezroq yuz beradi;
- sanoat oʻzgarishlari uchun fanning muhimligi oshadi;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi “bilimlar iqtisodiyoti” ning oʻsishi va rivojlanishi asosida yotadigan muhim omillardan biri hisoblanadi;


- fanning oshib borayotgan roli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi tufayli kodlashtirilgan bilim mutloq va nisbiy muhim bo‘lib qoladi.

#### IV. NATIJALAR

Hozirgi vaqtda intellektual mulkni tijoratlashtirishning yanada mashhurroq usuli OTM lar huzurida kichik innovatsion korxonalar tuzish hisoblanadi. Ularni tuzishdan maqsad tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini iqtisodiyot real sektori talablariga moslashtirish va ularni keyinchalik, bozorda sotiladigan yangi mahsulotlar va xizmatlarda qoplashdan iboratdir. Bunda OTM shaxsan uning ta’ sischisi bo‘lishi hamda ushbu korxonaning ta’ sischilaridan biri sifatida boshqa shaxslarni ham jalb qilishi mumkin.

2018 yil 14 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3855-sonli “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Ushbu Qaror OTM larga kichik innovatsion korxonalar tuzish, iqtisodiyotning ilmiy-ta’lim va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir samarali mexanizmlarini rivojlantirish imkoniyatini berdi. Biroq kichik korxonalar investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan qonunchilik imkoniyatlariga qaramasdan, kichik korxonalarni tuzishda OTM larning faolligi sezilarli pasaydi.

Alohida tanlab olingan tumanlarda yuqori samarador innovatsiyalarni joriy etish asosida ushbu hudud aholisining turmush darajasini oshirish, yuqori texnologik yangi ish o‘rinlarini yaratish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash va hududni kompleks innovatsion rivojlantirish yo‘nalishlarida mavjud analoglariga nisbatan ham narx va sifat ustunliklariga hamda innovatsiya elementlariga ega loyihalarni amalga oshirish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda 28 ta innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlar tasdiqlandi. Ushbu masalalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri amalga oshirish uchun mas’ul etib 28 ta innovatsion tumanlarning innovatsiya masalalari bo‘yicha hokim o‘rinbosarlari tayinlandi (1-rasm).




**1-rasm. 2022 yilda innovatsion hududlarda amalga oshirilayotgan loyihalar [21]**

Andijon tajriba-ko‘rgazma maydonida dorivor o‘simliklar ko‘chatlarini yetishtirish maqsadida 109 ming AQSh dollari qiymatidagi Janubiy Koreyaning zamonaviy texnologiyalari asosidagi innovatsion energotejamkor issiqxonasi tashkil



qilindi. Namangan viloyati Chust tumanidagi maktablarga 8 to‘plam oflayn innovatsion kutubxona platformasi, ya’ni (Q-box) texnologiyasi joriy qilindi. Mazkur innovatsion kutubxona platformasi (Q-box) Chust tumanidagi 5500 nafardan ortiq o‘quvchi yoshlarning internet tarmog‘iga ulanmasdan o‘ziga kerakli darslik va adabiyotlardan foydalanish imkoniyatini yaratdi (2-rasm).

Islom taraqqiyot banki tomonidan 275,0 ming AQSh dollari miqdorida moliyalashtirilgan “KPMG Audit” MChJ auditorlik tashkiloti tomonidan Orolbo‘yi xalqaro innovatsiya markazini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi va markaz faoliyatini rivojlantirishda foydalanilmoqda. Vazirlik tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi 133-sonli Qarori bilan tasdiqlangan Nizomga, asosan, 63-tur doirasida “Orol dengizining ekologik holatini yumshatishga qaratilgan” amaliy va innovatsion loyihalar Milliy tanlovi e’lon qilindi. Tuproq unumdorligini oshirish bo‘yicha 2021 yilda oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan jami 12 ta innovatsion loyihalarga 11,9 mlrd. so‘m mablag‘ ajratildi. Tuproq unumdorligini oshirish yuzasidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:



**2-rasm. Hududlarda agrar sohada o‘tkazilgan tadbirlar [22]**


Chust tumanida Tuproqshunoslik va agrokimyo ITI ning “Tuproq klinikasi” mobil laboratoriyasining namunaviy modelini shakllantirish va undan samarali foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish” amaliy loyihasi uchun 884 mln. so‘m ajratildi. Loyiha talablariga, asosan, tuproqning 10 dan ortiq parametrlarini aniqlash uchun Germaniyadan laboratoriya asbob-uskunolari olib kelindi.

Farg‘ona viloyati Furqat tumanidagi sho‘rlangan yerlar to‘g‘risidagi tezkor ma’lumotlar va ularni qayta ishlashga yo‘naltirilgan “sho‘rlangan tuproq” mobil ilovasi yaratildi. Oltinsoy tumanida tuproq unumdorligini aniqlash bo‘yicha mobil klinika xizmatini tashkil etish loyihasiga 1,3 mlrd. so‘m mablag‘ ajratildi. Xorazm viloyati tuproq-iqlim sharoitiga mos, serhosil va eksportbop mahalliy qovun navlari birlamchi urug‘chiligini rivojlantirish yo‘nalishidagi innovatsion loyihaga 2,0 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilgan. Shuningdek, 2021-2023 yillarda “Xorazm viloyatining tuproq va iqlim sharoitlariga mos xorijiy navlarni tanlash va urug‘larini ko‘paytirish” loyihasi doirasida sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan sholining 4 ta yangi navi yaratildi (3-rasm).



**3-rasm. Ilmiy faoliyatga oid hududiy dasturlarni moliyalashtirish [2]**

Startup loyihalarini saralash va moliyalashtirish uchun tanlab olish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 9 martdagi 133-sonli qarori 2-ilovasiga muvofiq, tanlovlar tashkil etiladi. Yangicha tartib yo‘lga qo‘yilishi natijasida 2019-2022 yillar davomida umumiy qiymati 114,0 mlrd. so‘mlik 176 ta startup loyihalar moliyalashtirilgan (4-rasm). Taqqoslash uchun aytish lozimki, 2019 yilga qadar startup loyihalarini davlat granti hisobiga moliyalashtirish tartibi bo‘lmagan. Startup loyihalarni moliyalashtirish natijasida 150 dan ortiq kichik va o‘rta biznes korxonalari tashkil etilgan bo‘lib, hozirgi kunda ularning jami ishlab chiqarish quvvati 138,0 mlrd. so‘mdan ortiq. Ushbu korxonalarda 200 dan ortiq yangi va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarilishi hamda xizmatlar ko‘rsatilish yo‘lga qo‘yilgan.



**4-rasm. Startap loyihalar soni (yillar kesimida) [23]**

Yuqori texnologiyalarni rivojlantirish, ilmiy-texnologik va innovatsiya tadbirkorligining barqaror rivojlanishini ta‘minlash, kichik innovatsiya korxonalarini tashkil etish, milliy va xorijiy bozorlarda raqobatdosh, ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishni va yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish uchun qulay muhit shakllantirish maqsadida co‘nggi 5 yil ichida respublikamizda 19 ta innovatsion infratuzilmalar (texnopark, biznes-inkubator, biznes-akselerator, kovorking markazi kabi) tashkil etildi. Yoshlarning “startup” loyihalarini rivojlantirish va ularni amalga oshirish uchun yagona maydon tashkil etish orqali hududlarning innovatsion salohiyatini oshirish

maqsadida Yoshlar texnoparklarida ilmiy va innovatsion faoliyatga 1500 nafar yoshlar jalb qilinib, akseleratsiya dasturlari yo‘lga qo‘yildi.

2021 yilda umumiy qiymati 114 mlrd. so‘m bo‘lgan Toshkent shahrining Talabalar shaharchasida 1,94 gektar yer maydonida “Inno” innovatsion o‘quv-ishlab chiqarish texnoparki bunyod etildi. Texnopark zarur moddiy-texnik baza, asbob-uskuna va mebellar bilan jihozlangan. Shu bilan birgalikda, vazirlik tashabbusi bilan startap loyihalarini moddiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida 3 ta investitsiya kompaniyasi, 6 ta venchur fondi va 1 ta boshqaruv kompaniyasi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. “Astron” venchur fondi, “UzVC” Milliy venchur fondi hamda “UzCARD Ventures” MChJ maqsadli jamg‘armalari, shular jumlasidandir.

Ishlab chiqarish tarmoqlarining ilmiy ishlanma va innovatsiyalarga bo‘lgan ehtiyojlari hamda mavjud texnologik muammolari asosida Ilmiy-tadqiqot loyihalariga davlat buyurtmasini shakllantirish yo‘lga qo‘yildi. Vazirlik tomonidan yaratilgan tizim shakllantirilishi natijasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot va tajriba-sinov ishlariga iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan ajratilgan mablag‘ hajmi 2019 yildagi 57,8 mlrd. so‘mdan 2021 yilda 96,6 mlrd. so‘mga yetkazilib, o‘shir darajasi 160 foizni tashkil etdi. Ushbu ishlar qatorida yaratilgan tajriba namunalari va partiyalarga 2019 yildagi 170 mln. so‘mdan 197 mln. so‘mga yetkazildi.

Shuningdek, Cooperation.uz Elektron kooperatsiya portalida TIF kodiga bog‘lanmagan “Innovatsion mahsulotlar” bo‘limi tashkil etilib, portal orqali mahalliy ilmiy tashkilotlar va korxonalariga innovatsion tovarlar va dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish, joriy etish va texnik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat organlari va yirik davlat tashkilotlari bilan shartnomalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri imzolash huquqi berildi. 2022 yil 1 avgustdan boshlab, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etishda “tarmoq-hudud-ilmiy/oliy ta‘lim tashkiloti” zanjiri asosida ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish bo‘yicha nizom tasdiqlandi. Natijada “1+1” prinsipi asosida ilmiy loyihalar tanlov asosida tarmoq tashkilotlari bilan birga moliyalashtiriladi.

2018-2022 yillarda iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasida, ilmiy-texnik ishlanmalarni davlat va jamiyat hayotining barcha sohalariga joriy qilishda va tijoratlashtirishda bir qator amaliy va samarali yangi mexanizmlar joriy qilindi. “Olim-ilmiy tashkilot-hudud”, “Olim-ilmiy tashkilot-tarmoq” tizimini rivojlantirish maqsadida yangi samarali “Tijoratlashtirish forumi”ning bahorgi hamda kuzgi bosqichlarini muntazam o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi.

Tijoratlashtirilgan mahsulotlar ko‘rgazmasi “Olim-ilmiy tashkilot-tarmoq” tizimi bo‘yicha taqdimot qilingan 66 ta loyihalar doirasida yangi turdagi innovatsion hamda import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar yaratildi, jumladan:

- a) yuqori texnologiyalarga asoslangan bioaktiv qoplamaga ega dental tish implantlarini ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi;
- b) ekologik toza, resurs tejamkor va iqtisodiy samarali kompleks ta‘sir etuvchi yangi avlod “TERIA” seriyali bakterial bioo‘g‘it ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi;
- v) Markaziy osiyoda analogi bo‘lmagan innovatsion, oshqozon-ichakning infeksiyon kasalliklarini davolash, GMP sertifikatiga ega bo‘lgan immunobiologik preparatlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi;



g) modellashtirilgan individual implant yordamida ko‘z kosasi pastki devorining nuqsonini bartaraf etish, 3D laboratoriya yordamida rekonstruktiv jarrohlik amaliyotlari uchun individual implant yaratish yo‘lga qo‘yildi;

d) beton mahsulotlarining mustahkamligini oshiruvchi 4 turdagi superplastifikatorlar ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yildi;

ye) suvni molekulyar darajada tozalovchi, teskari osmos suv filtrlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

2019 yildan boshlab Respublikamizda ilk bor “Tadbirkorlik bo‘yicha jahon chempionati” (Entrepreneurship World Cup)ning milliy saralash bosqichlarini o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. 2022 yildan ilmiy hajmdor va innovatsion mahsulotlar (tovar va xizmatlar) ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat sanoati, qurilish, sog‘liqni saqlash, avtomobilsozlik sohalarida faoliyat ko‘rsatuvchi 17 ta yangi innovatsion (spin-off) korxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda.

## V. MUHOKAMA

OTMlar innovatsion faoliyati natijalarini tijoratlashtirish asosiy ko‘rsatkichlarining yomonlashishi quyidagi sabablar oqibatida yuz beradi va ular innovatsion salohiyatining pasayishini bildiradi:

1. Oliy ta‘lim muassasalarining rahbarlarida ishlanmalar va innovatsiyalarni tijoratlashtirish jarayonini amalga oshirishga motivatsiyaning mavjudmasligi. Agar ilgari OTM lar innovatsion yechimga muhtoj murakkabliklar va muammolar ro‘yxatini tayyorlagan bo‘lsalar, hozirda bunday tashabbuskorlik amalda boy berilgan. Ko‘pincha bu ITTKI olib borishga moliyaviy resurslar yetarlimasligi va innovatsiyalarni tijoratlashtirish yuqori riskliligi bilan izohlanadi.

2. Umumiy ishlanmalarda raqobatbardosh innovatsion mahsulotlar ulushining kichikligi. Innovatsiyalarning ishlanmalar qiymati va sifatiga yuqori talablarni saqlashga tizimli layoqatsizligi kuzatiladi. Bundan tashqari, respublika ilm-fanining zamonaviy innovatsion vazifalarni tezkor yechishga tayyormasligi.

3. OTM lar intellektual faoliyati natijalaridan foydalanish bozorining yetarli rivojlanmaganligi. Ushbu muammoni bartaraf qilish uchun qonunchilik bilan intellektual mulk natijalarini himoyalashni kuchaytirish taqozo etiladi.

4. ITTKI va innovatsiyalarni tijoratlashtirishga nisbatan yagona davlat siyosati va kompleks yondashuvning mavjudmasligi. Hozirgi vaqtda ITTKI ga davlat buyurtmalarini tayyorlash va innovatsiyalarning davlat rejasiga bo‘lgan ehtiyoj kuzatiladi.


5. Mamlakat hududida mintaqaviy innovatsiyalar bozorining yopiqligi. O‘zbekistonning har bir mintaqasida yirik ishlab chiquvchilarning mavjudligi va ularning o‘zaro yuqori raqobati bilan izohlanadi.

6. ITTKI ni muvofiqlashtirib turadigan yirik tarmoq operatorining mavjudmasligi. Tarmoq muvofiqlashtirishining mavjudmasligi innovatsiyalar bozoridagi talab va taklif monitoringini o‘tkazish uchun tarmoq operatorlarini yaratish, tarmoq ITTKI maqsadlarini kelishtirish va vazifalarni tezkor yechishni zarur qilib qo‘yadi.

7. OTMlarning innovatsiyalarni tijoratlash tirish uchun javobgarligining yetarlimasligi. OTM o‘z ishlanmalarini samarali joriy etish ustidan to‘liq javobgarligining mavjudligi bilan innovatsiyalarni tijoratlash tirish zanjiriga yuqori darajada to‘liq integratsiyalashgan bo‘lishi lozim. ITTKIni tashkiliy-iqtisodiy kuzatishning amal qilmasligi shunga olib keldiki, innovatsiya bunda ko‘pincha narxda yo‘qotishlarga uchragan holda o‘z ishlab chiquvchilariga uzoq muddat hech qanday foyda keltirmasligi kuzatildi. ITTKIni olib borish bo‘yicha kompleks choralarni to‘liq amalga oshirish uchun OTM o‘z vakolatlari doirasida xizmat ko‘rsatish bo‘yicha mexanizmlar va yaxshi yo‘lga qo‘yilgan tartibotlar chizmasiga ega bo‘lmog‘i lozim.

5-rasmda OTMning intellektual mahsulotini tijoratlash tirish mexanizmi chizmasi keltirilgan. Boshlang‘ich bosqichda ushbu mexanizmni ro‘yobga chiqarish jarayonida ilmiy yangilik va o‘tkazilayotgan ITTKI ning istiqbolli ko‘rsatkichlarini kuzatuvchi ilmiy boshqaruv g‘oyasini izlash amalga oshiriladi. Tanlab olingan g‘oyalar bozorni o‘rganishda yuz beradigan innovatsiyalar marketingi markaziga o‘tkaziladi. Innovatsion g‘oyalarning keyingi tanlab olinishi va tovarlar konsepsiyasi variantlarining ishlab chiqilishi innovatsiyalar ishlab chiquvchisi va biznes-inkubator tomonidan birgalikda amalga oshiriladi. OTM innovatsiya bo‘limlari faoliyatining umumiy yo‘nalishi innovatsiyalarni tijoratlash tirish yo‘nalishlarini, uning asosiy bozor istiqbollari belgilaydi. Bu o‘tkazilayotgan ITTKI natijalarini uch yo‘nalishda siljitish imkonini beradi:

- 1) intellektual mulkchilik bozoriga chiqish;
- 2) innovatsion loyihani amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarni izlashni amalga oshirish;
- 3) innovatsion mahsulot ishlab chiqarishni boshlash.



**5-rasm. OTM intellektual faoliyati natijalarini tijratlashtirish mexanizmi [8]**

Texnologiyalar transferi markazi ma’lumotlar bazasi bo‘yicha maxsus tadqiqotlar olib boradi, patent qidiruvini amalga oshiradi va intellektual mulkni rasmiylashtirish tartibi bilan shug‘ullanadi. Marketing markazi intellektual mulkni rasmiylashtirish davrida kechayotgan bozor vaziyatidagi o‘zgarishlar haqida axborotlarni taqdim etadi, narx strategiyasini ishlab chiqadi va intellektual mulk potensial xaridorlariga nisbatan tavsiyalar beradi.

Innovatsion loyihani amalga oshirishga tayyorlash va innovatsion tovar yaratish bosqichiga o‘tish kichik innovatsion korxonani yaratishni yoki uni amaldagi korxonada ro‘yobga chiqarishni ko‘zda tutadi. Innovatsion tovar yaratish bosqichida testlashtirish va ijodiy qarorlarni ro‘yxatga olish amalga oshiriladi; innovatsion tovarlarni bozorga chiqarishning kommunikatsion strategiyasi va taqsimlash rejasi, narx siyosati ishlab chiqiladi; sinov marketingi o‘tkaziladi, bozor prognozlari ishlab chiqiladi. Innovatsion mahsulotlarni tijratlashtirish mexanizmini joriy etish samarasini baholash intellektual mulkni sotishdan olingan daromadlar va innovatsiyalar, ITTKI marketing xarajatlarini, intellektual mulkni rasmiylashtirish hamda ishlab chiqarishni tashkil qilish bilan bog‘liq xarajatlar chegirib tashlangan holda tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlarni qo‘shish orqali aniqlanadi.

## VI. XULOSALAR

Ushbu taklif algoritmini joriy etish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- innovatsiyalar bozorida istiqbolli ITTKI ni aniqlash va va bozorda tayyor mahsulotlar muvaffaqiyatsizliklari riskini pasaytirish;
- joriy etish bosqichida mahsulotni garovga qo'yishni taqozo etadigan ishlanmalarning raqobat ustunliklarini aniqlash;
- innovatsiyalarni tijoratlashtirish bosqichida OTM innovatsion infratuzilmasi har bir bo'limining javobgarlik hududini aniqlash;
- innovatsiyalarni tijoratlashtirishning har bir bosqichini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mehnat va moliyaviy resurslarni harakatlantirish va oqilona taqsimlash;
- investorlar va ishlab chiquvchilarni zaruriy marketing ma'lumotlari bilan vaqtida ta'minlash;
- bozorning joriy ehtiyojlariga muvofiq, innovatsiyalarni tijoratlashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish, mahsulotlarga ishlov berishning bo'lg'uvsi xarajatlarini kamaytirgan holda ishlab chiqilayotgan mahsulotni potensial iste'molchilar talablariga muvofiq, tuzatish;
- tashkilotning uzoq muddatli strategiyasiga muvofiq, uni bozorga siljitish bilan loyihani muvaffaqiyatli tijoratlashtirishning rejali jarayonini ta'minlash.

## VII. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldagi PQ-3855-sonli “Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrdagi PF-6097-son Farmoniga 4-ilova
3. Андреева К.В. Функции знаний в экономике знаний // Евразийский союз ученых. - 2015. - № 5-1 (14). - С. 15-17.
4. Bell Daniel. The Coming of Post-Industrial Society. - New York: Basic Books/Harper, 1973. 23
5. Burns T., Stalker G. M. The Management of Innovation. - London: Tavistock Publication, 1961.
6. Veblen T. Why is Economics not an Evolutionary Science? // The Quarterly Journal of Economics. - 1898. - No. 12 (4). - Pp. 373-397.
7. Дзобелова В.Б., Олисаева А.В. Формирование устойчивой инновационной среды в вузе и проблема коммерциализации результатов научно-образовательной деятельности. // Вестник Северо-Осетинского государственного университета им. К.Л.Хетагурова. Общественные науки. - 2015. № 3. С. 224-226.
8. Qizi, Z.H.X. (2025). Davlat oliy ta'lim muassasalari talim xizmatlarini boshqarishning o'zbekistondagi asosiy jihatlari. *In The World Of Science and Education*, (15 февраль ЭН), 88-92.
9. Зяблов А.А., Толкачева С.В., Малевич И.Х. Коммерциализация инноваций как фактор повышения эффективности работы вуза. // <https://rep.bntu.by/bitstream/handle/data/27451/87-91.pdf?sequence=1&isAllowed=y>. (asosida muallifning ishlanmasi).

10. Cole A. H. Business Enterprise in its Social Setting. - Cambridge (Mass.): Harvard University Press, 1959.
11. Cohendet P. & Joly B-P. The Production of Technological Knowledge: New Issues in a Learning Economy // in Archibugi & Lundvall, 2001
12. Mees C. E. K., Leermakers J. A. The Organization of Industrial Scientific Research. - New York: McGraw-Hill, 1950.
13. Nowotny H. Insatiable Curiosity: Innovation in a Fragile Future. - Cambridge (Mass.): MIT Press, 2008.
14. Олимова Н.Х., Каримов Ш.Х. (2020). Реал сектор корхоналарида инновацион янгиликларни жорий қилишнинг ташкили-йиқтисодий механизмини такомиллаштириш. In *Минтақа иқтисодиётини инвестициялашнинг молиявий-ҳуқуқий ва инновацион жиҳатлари* (pp. 423-427).
15. Pigou A. C. The Economics of Welfare. - Second edition. - London: Macmillan, 1924.
16. Соловьёва В.И., Шамардин Н.Н. «Экономика знаний» и «общество знаний»: некоторые дискуссионные проблемы // Научные ведомости Белгородского государственного университета. Серия: Философия. Социология. Право. - 2015. - Т. 34, № 20 (217). - С. 174-178
17. Sweezy P.M. Karl Marx and the Industrial Revolution // Events, Ideology and Economic Theory / in R.V. Eagly (ed.). - Detroit: Wayne State University Press, 1968. - Pp. 107-126.
18. The Knowledge Economy / ed. Dale Neef Boston: Butterworth-Heinemann, 1998. - (Resources for the Knowledge-Based Economy). - 278 p.
19. Угнич Е.А., Изотов М.А., Волощенко И.И. Коммерциализация результатов интеллектуальной деятельности в университетах: концепция инновационной экосистемы // Интернетжурнал «Науковедение». - 2015. № 4 (том 7). <http://naukovedenie.ru/PDF/30evn415.pdf>
20. Schumpeter J.A. The Creative Response in Economic History // Journal of Economic History. - November, 1947. - Pp. 149-159.
21. O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligining 2018-2022 yillardagi asosiy faoliyat natijalari// <https://t.me/c/1520704935/2603>
22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi ma’lumotlari.//[www.stat.uz](http://www.stat.uz)
23. <https://t.me/c/1520704935/2603>